

Osmon Card kredit kartasining* asosiy shartlari to'g'risida

Tijorat bankining nomi	"TBC Bank" ATB
Manzil	100015, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy.
STIR	207318613
Sayt	https://tbcbank.uz/
Telefon	1150 +99878 777 27 27
Markaziy bank litsenziyasi	17.03.2022-yildagi 86-son

Kredit kartaning nomi	Osmon Card
Karta chiqarilgan to'lov tizimi (VISA, Mastercard, Humo va hokazolar)	Humo, Mastercard
Kredit limiti (minimal va maksimal miqdori)	300 000 so'mdan 50 000 000 so'mgacha
Foiz stavkasi (yillik)	Yillik 29% dan 50% gacha (skoring natijalari asosida har bir mijoz uchun alohida belgilanadi va Shartnomada ko'rsatib o'tiladi)
a. xaridlar qilganda (va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga)	Yillik 0% dan 50% gacha
b. o'tkazmalarni amalga oshirganda (va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga)	Yillik 29% dan 50% gacha
v. kredit kartaga ajratilgan limitni naqdlashtirganda (va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga)	Yillik 29% dan 50% gacha
g. boshqa operatsiyalarni amalga oshirganda (yuqorida ko'rsatilmagan)	Yillik 29% dan 50% gacha
Kredit kartaning to'liq yillik foiz stavkasi (APR)	Yillik 50% gacha
Foizsiz davr muddati (greys period)	55 kungacha POS-operatsiyalar (xaridlar) uchun Bankning kredit mablag'laridan foydalanganlik uchun so'nggi hisobot davri doirasidagi foizlar undirilmaydigan vaqt oralig'i (55 kungacha). Agar foizsiz davr qarzdorligining summasi to'lov sanasiga qadar to'liq miqdorda kiritilgan bo'lsagina.
Foizsiz davr qanday operatsiyalar uchun amal qiladi	Xaridlar (POS operatsiyalar)
Foizsiz davr qanday operatsiyalar uchun amal qilmaydi	Tarifga muvofiq naqd pul yechib olish (CASH-operatsiyalar) va ularga tenglashtirilgan barcha operatsiyalar

Har oylik minimal to'lov	Asosiy qarzning 8 foizidan ko'p bo'lmagan qismi + hisoblangan foizlar (Minimal to'lovni hisoblash uchun aniq stavka Shartnomada har bir mijoz uchun alohida belgilanadi)
Karta bo'yicha qarzdorlikni oraliq to'lash sanasi yoki ushbu to'lovni aniqlash tartibi	Ko'chirma shakllantirilgan sanadan keyingi kundan boshlab to'lov davri oxirigacha bo'lgan davrning istalgan kuni, uning davomiyligi 25 kungacha.
Amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ko'chirma berish sanasi yoki sanani aniqlash tartibi	Ko'chirma sanasi individual tarzda belgilanadi va Bank tomonidan TBC UZ ilovasi orqali yoki SMS orqali xabardor qilinadi. Ko'chirma sanasida o'tgan hisobot davri uchun ko'chirma tuziladi: bu davr o'tgan kalendar oyining ko'chirma sanasidan joriy kalendar oyining ko'chirma sanasidan oldingi kungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Karta bo'yicha birinchi Hisobot davri Karta bo'yicha birinchi operatsiya sanasidan boshlab Ko'chirma sanasigacha hisoblanadi.
Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki muddati o'tgan to'lovlar bo'yicha jarima va penyalari	Minimal to'lov kechiktirilganda to'lov: 1. Muddati o'tgan qarzdorlik uchun oshirilgan foiz ikkinchi kundan boshlab kuniga 0,35% ni tashkil etadi. 2. Muddati o'tgan qarzdorlik uchun birinchi kun uchun oshirilgan foiz muddati o'tgan asosiy qarz summasining 8,75 %ni tashkil etadi.
	Minimal to'lov So'ndirish sanasigacha to'lanmagan taqdirda, Ko'chirma sanasidan boshlab muddati o'tgan asosiy qarz summasiga har kuni yuqori foiz hisoblanadi.
Kredit karta bo'yicha ta'minot (agar mavjud bo'lsa)	Mavjud emas
Kredit kartani rasmiylashtirish usullari va muddati	Kredit kartani faqat bankning mobil ilovasida rasmiylashtirish mumkin. Ko'rib chiqish muddati - 1 kalendar kun.

Kredit karta bo'yicha limitdan voz kechish usullari va muddati

Kredit karta tasdiqlangandan keyin mijoz:

- joriy kunning oxirigacha shartnomani imzolashi,
- shartnoma imzolangandan so'ng 30 kalendar kun ichida kartani yetkazib berishga buyurtmanomani berishi mumkin (bundan keyin buyurtmanoma bekor qilinadi). Kredit kartasini olgandan so'ng, mijoz shartnomani bekor qilish kunidan 30 (o'ttiz) kun oldin Bankni xabardor qilib, Shartnomani bekor qilishga haqli, agar Shartnoma bekor qilinganligi to'g'risida xabardor qilingan kunga qadar Qarz oluvchining Bank oldida to'lanmagan qarzi bo'lmasagina.

Kredit karta bo'yicha boshqa shartlar**
(tiklanuvchan limit shartlari, bank tomonidan limitni cheklash va bekor qilish va boshqalar)

- a. Kreditni muddatidan oldin qaytarish tartibi;
- b. Kredit shartlarini o'zgartirish tartibi, shu jumladan qaytarish muddatlarini qayta ko'rib chiqish va undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish tartibi;
- v. Kredit limitini bloklash

- a. Qarzdorlikni to'lash uchun to'lovlar keyingi navbatda umumiy tartibda amalga oshiriladi:
 - Asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik, kechiktirilgan foiz to'lovlari hamda muddati o'tgan asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar mutanosib ravishda;
 - Hisobot davri uchun hisoblangan foizlar;
 - Asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
 - Qarzdorlikni qaytarish bilan bog'liq Bankning boshqa xarajatlari.

Bunda agar mijozda POS-operatsiyalar va Cash-operatsiyalar uchun foizli qarzdorlik va asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lsa, birinchi o'rinda POS-operatsiyalar uchun qarzdorlik to'lanadi.

- b. Limit Bank tomonidan Qarz oluvchining to'lov qobiliyati va to'lov intizomiga qarab bir tomonlama kamaytirish tomonga o'zgartirilishi mumkin. Kamaytirilgan Limit miqdori mobil ilovada mavjud bo'ladi. Qarz oluvchi o'zgartirilgan Limitdan norozi bo'lgan taqdirda, Qarz oluvchi Karta va Limitdan foydalanishni to'xtatishi va Shartnomani bekor qilish uchun Bankka murojaat qilishi lozim. Limitdan foydalanishda davom etish yoki Karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish orqali Qarz oluvchi o'zgartirilgan Limitga rozilik beradi (aksept qiladi).

v. Shartnomaga ko'ra, shu jumladan, Qarz oluvchi to'lov muddati o'tganidan keyin 1 ish kunidan ortiq vaqt davomida Bankning boshqa talablarini bajarishdan bosh tortganda;

Doimiy muddatli to'lovlar (oylik abonent to'lovi va hokazolar)

Qo'llanilmaydi

Xaridlarni amalga oshirganda

Undirilmaydi

Boshqa kartaga (hisobvarag'iga) o'tkazmalarni amalga oshirganda

Undirilmaydi

Kredit kartaga ajratilgan limitni naqdashtirganda

Komissiya naqd pul yechib olish summasidan olinadi va har bir naqd pul yechib olish summasining 3 foizini yoki 90 000 so'mni tashkil qiladi, ya'ni bu ikki summadan qaysi biri katta bo'lishiga qarab.

Bankomat egasi bo'lgan bank tomonidan qo'shimcha komissiya undirilishi mumkin. Bu komissiya miqdori bankomat ekranida naqd pul yechib olish vaqtida ko'rsatiladi.

Boshqa operatsiyalarni amalga oshirganda

Undirilmaydi

O'zbekistondan tashqaridagi tranzaksiyalar (operatsiyalar) bo'yicha

Kredit karta bo'yicha qarzdorlikni to'lash xarajatlari

Undirilmaydi

Kredit karta hisobini to'ldirganda (boshqa bankning kartasi, bank kassalari va elektron hamyon orqali to'ldirish xarajatlari)

Komissiya boshqa bank, to'lov tashkiloti tomonidan belgilanadi

Kredit kartani:

- a. chiqarganda;
- b. qayta chiqarganda.

- a. Karta chiqarish - bepul;
- b. Kartaning amal qilish muddati tugagunga qadar kartani qayta chiqarish uchun komissiya: 50 000 so'm

Boshqa to'lovlar**

Kredit kartani rasmiylashtirishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!

Siz kredit kartaning shartlari va qiymati to'g'risida, to'lovlar va hisob-kitoblar tartibi to'g'risida (foizlar, jarima va penyalari), kredit karta shartnomasi bo'yicha Sizning huquqlaringiz va majburiyatlaringiz to'g'risida, kredit karta shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va javobgarliklar to'g'risida, kredit kartadan xavfsiz foydalanish to'g'risida, shuningdek Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni (telefon raqami ko'rsatiladi) raqamli telefonga yoki (bankning pochta manzili ko'rsatiladi) manzilga yoki (bankning elektron pochta manzili ko'rsatiladi) elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI
VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.

Bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi

To'ldirilgan sana

*Mazkur varaqa kredit karta bo'yicha shartnoma yoki kredit karta olish uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha turli banklarning kredit kartalari shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.

** Mazkur bandeda bank xohishidan kelib chiqib o'zi lozim deb topgan shartlarni yoki ma'lumotni aks ettiradi.

*** 2-bo'limda qayd etilgan komissiya va to'lovlar kredit kartaga ajratilgan limit mablag'laridan foydalanganlik uchun undiriladi.